

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Iyul, 2019

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.

Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Loyihani ishga tushirishning boshlang'ich qiymati 115 020 000 so'mni tashkil etadi va u quyidagi jadvalda keltirilgan:


Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Maishiy texnika va mebel	72 020 000
Video darslarini yozish va dublyaj qilish uchun studiyalar yaratish	25 000 000
Yuridik va buxgalteriya xizmatlari	18 000 000
Jami	115 020 000

Butun davr uchun operatsion xarajatlar umumiy miqdori 140 083 604 so'mni tashkil etadi (shundan iyul oyida - 59 398 491 so'm).

Xarajatlar ro'yxati	Butun davr (yanvar-iyul, 2019) so'mda	Iyul, 2019 so'mda
Video materiallar yaratish	18 080 000	8 480 000
Matn materiallarini tarjima qilish	53 339 000	25 081 000
Ma'muriy xarajatlar	36 364 689	8 000 000
Bank xarajatlari	776 825	507 037
Marketing	9 350 000	6 850 000
Platforma integratsiyasi*	5 000 000	5 000 000
Soliqlar	17 173 090	8 480 454
Jami	140 083 604	59 398 491

*Platforma integratsiyasi — bu Khan Academy platformasini davlat ta'lim dasturlariga joriy qilish, ya'ni maktablar va o'qituvchilar bilan ishlash jarayonidir.

Butun davr mobaynidagi (yanvar-iyul, 2019) xarajatlarning (140 083 604 so'm) foizdagi ko'rinishi quyidagi aylana diagrammada ifodalangan:



Xarajatlarning 63% i kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, video darslarni yaratish va soliqlarning bir qismini to'lashga sarflandi.

26% i ma'muriy xarajatlar, shu jumladan, xodimlarning ish haqini tashkil qildi.

7% i marketing xarajatlari, ya'ni tarqatma materiallarini va marketologni ish haqiga sarflandi.

4% i esa platformani integratsiyal qilishga saflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) koʻrish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) koʻrish mumkin.
- Tayyor video darslarni [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>